

O'ZBEK ADABIYOTI NASRIDA QO'LLANILGAN METAFORALARNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Muminov Sidikjon Mirsobirovich

Farg'ona davlat universiteti, professor, filologiya fanlari doktori.

Farg'ona, O'zbekiston.

Mahfuza Nishonboyeva

Farg'ona, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13905872>

Annotatsiya. Ushbu maqolada metafora va uning lisoniy va xusisiy(muallif) metaforlari va ularning nafaqat tilshunoslik balki badiiy adabiyotdagi o'rni dolzarb muhokama qilingan.

O'zbek nasrida qo'llanilgan metaforalarning leksik-grammatik xususiyatlar haqida ma'lumotlar tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: metafora, xusisiy metafora, konnotativ ma'no, denotativ ma'no, termin, ko'chim, muallif metaforasi, lisoniy metafora, urg'u, bo'g'in.

LEXICAL-GRAMMATICAL CHARACTERISTICS OF METAPHORS USED IN THE PROSE OF UZBEK LITERATURE

Abstract. In this article, metaphor and its linguistic and personal (author) metaphors and their role not only in linguistics but also in fiction are discussed. Information about lexical-grammatical features of metaphors used in Uzbek prose is analyzed.

Key words: metaphor, specific metaphor, connotative meaning, denotative meaning, term, transference, author's metaphor, linguistic metaphor, emphasis, syllable.

ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МЕТАФОР, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ В ПРОЗЕ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В статье рассматриваются метафора и ее лингволичностные (авторские) метафоры и их место не только в лингвистике, но и в художественной литературе. Анализируются сведения о лексико-грамматических особенностях метафор, используемых в узбекской прозе.

Ключевые слова: метафора, специфическая метафора, коннотативное значение, денотативное значение, термин, перенос, авторская метафора, лингвистическая метафора, ударение, слог.

Metafora bu har bir tilning o'tmishi, buguni hamda ertasi hisoblanadi. Sababi, metafora ko'chim turida ana shu xalqning madaniyati, qadryatlari ham ba'zan insonlarning dunyo qarashlari ham aks etadi. Shuning uchun tilning shakllanishini, taraqqiyotini baholashda metaforlarning qo'llanishiga e'tibor qaratishning o'zi yetarlidir. Chunonchi, Aristotel "Poetika" nomli asarida quyidagi fikrlarni keltirgan. "Metafora-bu turdan-turga yoki o'xshash bo'lgan g'ayrioddiy ismning ko'chirilishidir". Shu nuqtai nazar kelib chiqadiki, aksariyat terminlarning kelib chiqishi metaforaga borib taqaladi. Ya'ni tilshunoslikdagi, urg'u, bo'g'in, tovush o'zgarishi, ma'no ko'chishi, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, shakl yasalishi, gap bo'lagi, ega, kesim, barcha ikkinchi darajali gap bo'laklari, qo'shma so'z, qo'shma va soda gap, so'z o'zgarishi, yumshoq bo'lak va shu kabi minglab terminlar aynan metaforik asosda ekanligi fikrimiz isbotidir.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, metafora va uning vazifa-yu maqsadlari tog‘risida ko‘plab ilmiy asarlar yaratildi. Ularda bu ko‘chimning asosini o‘xshatish yoki qiyoslashdan iborat ekanligi ham bot-bot takrorlangan. Aristotel ham metafora bilan o‘xshatishning katta farqi yo‘q ekanligi, ular bir- biriga yaqin ekanligi sababli ham osonlik bilan o‘xshatishni metaforaga aylantirish mumkin ekanligini aytib o‘tgan. Yana u shuni ta’kidlab o‘tdiki, agar shoir Axill haqida “U sherdek tashlandi” desa –**dek** qo‘shimchasi sababli ham o‘xshatish yuzaga keladi, ammo “Sher tashlandi” desa metafora bo‘ladi.

Metafora asosida ma’no ko‘chishi ot, sifat, fe’l so‘z turkumlarida bo‘ladi. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: **lingvistik (lisoniy) metafora** va **xususiy-muallif metaforalari**.

Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. “Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi.” Faqatgina ma’lum bir so‘zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: qozon qulog‘i, rubobning qorni, ariq labi, varrak dumi, egar qoshi.

Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya’ni borliqni subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no mavjud bo‘ladi. Shu sabab badiiy adabiyotda asar qahramonlarining his-tuyg‘u va o‘y-kechinmalarini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq ifodalash uchun mana shu ko‘chim turidan ko‘p foydalaniladi.

Agar yozuvchi xususiy metaforalardan foydalansa, nima sababdan aynan uni qo‘llayotganining sababi yoki maqsadini keltirib o‘tadi. Masalan, uy va yovvoyi hayvon nomlarini ko‘chim turi sifatida qo‘llanilishining o‘z maqsadi bor. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no aniq holda ifodalanadi.

Masalan, Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo‘yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkinning ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko‘zi o‘tkirliги kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chiriladi, natijada konnotativ ma’no yuzaga keladi hamda matnning ta’sirchanligi oshadi.¹

Yuqoridagi metaforalar aksariyat olimlar tomonidan xususiy- metaforalar deb tan olingan.

Ammo ba’zi tilshunoslar shuni isbotlashdiki, ular xususiy emas balki an’anaviy metaforalardir, ya’ni ular konnotativ xususiyatga ega bo‘lishiga, matnni ta’sirchanligini oshirishga qaramay, ular yangi yoki original emas, uni yozuvchi yaratmagan, balki oldindan ma’lum metaforadir. Bunga misol qilib “buqalamun” hayvonini olsak, lug‘atlarda ham ko‘zbo‘yamachi, ikkiyuzlamachi, o‘zrauvchan insonlar uchun ishlatiluvchi metaforalar ham an’anaviydir. Shu sababli ham badiiy adabiyotda lingvopoetik salmoqlilik darajasiga ko‘ra bunday metaforalar ancha pastda. Ammo yangi va hech kutilmagan, ijodkorning o‘z mahsuli hisoblangan metaforalar badiiy

¹ Мамадалиев М. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг коннотатив аспекти: Филол.фан. номз. дисс... – Тошкент: 1998. –Б.12.

asarda kuchli darajada bo'ladib deb ta'kidlanadi. Badiiy asarlarda metaforalarning o'rni va vazifalarini tahlil qilish uchun Abdulla Qahhorning "Jonfig'on" hikoyasi ko'rib chiqamiz.

Asar bosh qahramonlarining ismlari Jonfig'on va Malohat ham metafora asosida ma'no ko'chgan.

Jonfig'on- ism va asarlarga nom sifatida metafora asosida qo'yiladi.

Malohat- qorachadan kelgan chiroyli hushbichim {1. O'zbek tili izohli lug'ati}.

Asarda qahramonga mos obraz hosil qilish uchun qo'llanilgan.

"Jonfig'onni tanisangiz kerak - o'sha, **o'tgan** yil bahorda mast bo'lib, ko'chadan **o'tgan** odamga "hozir aytasan: boshimni qaysi devorga urib yoray", deb **yopishgan**, keyin soqoliga o'zi o't qo'yib, gugurt chiqarganni so'kkan kishi... Jonfig'on **o'tgan yil** bahor kechalarining birida (o'sha kuni ertasiga boshini yormoqchi bo'lgan, soqoliga o't qo'ygan) istirohat bog'iga kirgan ekan, qarasa, shaharning manman degan staxanovchilari qatorida xotinining ham kattakon portreti turibdi!" Ushbu jumlada ishtirok etgan metaforik birlik bu "o'tgan yil". Yuqorida *o'tgan* so'zi ikki bor ketma-ket qo'llanilmoqda. Ammo biri denotativ, yana biri konotativ ma'noga ega. *Ko'chadan o'tgan* ma'nosida asl va *o'tgan yil* birligida harakat o'xshashligi asosida ma'no ko'chgan. Ya'ni insonga xos xususiyatlar jonsiz narsaga ko'chgan. Va yozuvchi ta'sirchanlik ma'nosida bu birlikni qo'llagan.

"*Yopishgan*" so'zi ham harakat jihatdan o'xshashligi asosida ma'no ko'chgan. Va ushbu jumalada yaqin keldi, ushlab oldi ma'nolarini bo'rttirish uchun yozuvchi tomonidan mohirona qo'llanilgan.

"Kecha shuning uyidan xotin kishining **achchiq-achchiq yig'lagan** tovushi eshitildi."

Achchiq-achchiq yig'i metaforik birikmasida, takroriy sifatlar maza- ta'm o'xshashligi yoki belgi xususiyati asosida ma'no ko'chgan. Shoir bunday metaforani qo'llash orqali o'quvchida yorqin taassurot uyg'otishni maqsad qilgan va buni mahorat bilan amalga oshirgan.

"Jonfig'on bu **yaqin yillarda** xotinini urgan emas, hatto bir kuni samovarda o'zi: "Xotin kishini nomard uradi." Ushbu gapda metaforaning Joylashuviga ko'ra (ba'zi manbalarda oriyentatsiyaviy deb ham ataladi) metafora ma'lum bir jismning joylashish o'rniga ko'ra ma'no ko'chgan.

"**Sho'rginam qursin...** ko'rmaysizlarmi... Besh-olti yildan beri bitta paypoq olib bergani yo'q-ku, ishlab-ishlab topgan pulimga qilgan hamma kiyimlarimga kerosin sepib **o't qo'ydi...**"

Ushbu gapda ishtirok *Sho'rginam qursin* metaforasi **Metaphors can help "visualize" a situation or put an event in context)** mavjud vaziyatni tasavvur qilish yoki holatlarni aniq kontekstda tushunishga yordam bermoqda. Bu yerda yana *o't qo'ymoq* qo'shma fe'lini ham ko'rishimiz mumkin. Aslida kelib chiqishi metaforaga bog'langan. O'tni qo'yib bo'lmasligi, qo'ymoq faqat jismga nisbatan qo'llanilishini bilamiz.

"Jonfig'on **katta bir haqiqatni** ochishga shoshilganday, uydan yugurib chiqdi." Yozuvchi ushbu gapda katta metaforasini haqiqat hamma uchun hayratlanarli bo'lishini, sir tutilgan haqiqat ekanligi ko'rsatish uchun va bu **san'at turi orqali ikkita bir-birga o'xshamagan narsalar taqqoslanmoqdi va miyyani charxlash uchun xizmat qilyapti**. Ushbu metafora mavhum tushunchalarning o'quvchi uchun tushunarli yo'llar bilan yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

“Bizga **zo‘r haqsizlikdan** shikoyat qilayotgan qiyofada turib, allaqaerda o‘tgan bir avliyoning o‘z o‘gliga "xotinlar bevafo" deb qilgan nasihati, jinoyat qonunlari majmuasining allanechanchi moddasi to‘g‘risida gapirdi va bexosdan yig‘lab yubordi.” **Yozuvchi metaforadan odamlarning turli kutilmagan holatlar bilan tasvirlash hamda ikkita bir-birga o‘xshamagan narsalar taqqoslamoda va miyyani charxlash uchun xizmat qilmoqda.**

“Ba’zi urishlar shunday arzimagan narsadan **chiqadiki**, orada qancha **sovuq gaplar** o‘tib "hordiq chiqqandan keyin" **urish nimadan chiqqanini** na er eslay oladi, na xotin. Er-xotin ayta bersa, bu janjalning tarixi biron yozuvchining **qo‘liga tushsa** kattakon bir kitob bo‘ladigan.”

Yuqorida ajratib ko‘rsatilgan fe‘llar “chiqmoq, tushmoq” odatda insonlarga xos xatti-harakatlarni ifodalab kelmoqda, va bu yerda mazkur fe‘llar narsa-buyumlarga ko‘chgan va asarda ta’sirchnali va obrazlilik ta’minlanmoqda. “Sovuq gap” metaforik birligi esa gapning qay darajada negative ekanligi, salbiy xususiyatga ega ekanligini yozuvchi qo‘llagan metaforadan bilishimiz mumkin, Ikki bir-biriga o‘xshamagan tushunchani belgi xususiyatiga ko‘ra o‘xshatmoqda.

“Jonfig‘on bundan besh-olti yil burun qaysi bir idoraning izvoshini minar ekan, kirakashlik qilib **qo‘lga tushib** ishdan haydashibdi; keyin sabzavot do‘koniga mudir bo‘lgan ekan.” “Qo‘lga tushmoq” ushbu gapda ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan, aslida bu yerda sinekdohaviy metafora ko‘chim turi mavjud desak bo‘ladi, sababi qo‘l orqali butun bir jism nazarda tutilmoqda hamda qo‘lga tushmoq birikmasi ko‘chma ma’noda qo‘llanilmoqda.

“Juda arzon mollar, bularning **ustiga** so‘m **qo‘yib** bo‘lmasa, tiyin qo‘yish bilan qachon boy bo‘ladi kishi” deb o‘zi tashlab ketibdi; tanish-bilishlari zavodga **ishga joylab qo‘ygan ekan**,”

Bilamizki, pul miqdoriga yana summa qo‘shishimiz mumkin ammo, bu yerda pulning ustiga pul qo‘ymoq metaforasi ishlatilib, o‘quvchilar ongida **mavhum tushunchalarning o‘quvchi uchun tushunarli yo‘llar bilan yetkazib berish hamda so‘zlovchilar nutqida aniqlikni yaratish uchun xizmat qilmoqda. Keyingi metafora ishga joylab qo‘ygan ekan** metaforasidir. Bilamizki jonsiz buyumlarni ma’lum bir yerga joylab qo‘yish mumkin, lekin insonni joylab qo‘yilmaydi biroq uni ish bilan ta’minlanishiga o‘z xissasini qo‘shgani uchun shu metaforik birlik qo‘llagan asar qahramoni. Yozuvchi maqsadi: **(Metaphors can help “visualize” a situation or put an event in context) Metafora mavjud vaziyatni tasavvur qilish yoki holatlarni aniq kontekstda tushunishga yordam beradi.**

“Jonfig‘on izvozchilikdan haydalgan yili, mahalladagi aktiv ayollarning **himoyasi ostida, erining qarshiligiga** qaramay, rayon Kengashiga uborshitsa bo‘lib kirgan ekan; o‘qibdi, hademay savodi chiqibdi, bir yil-bir yarim yildan keyin hatto majlislarda dokladchiga: "O‘rtoq, sizga savolim bor", deydigan bo‘libdi.” **Himoyasi ostida va erining qarshiligi** metaforalarining joylashuviga ko‘ra (ba’zi manbalarda oriyentatsiyaviy deb ham ataladi) metafora ma’lum bir jismning joylashish o‘rniga ko‘ra ma’no ko‘chgan. Bir jism ikkinchisining ostida yoki qarshisida bo‘lishi mumkin ammo bu yerda ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, **(Metaphors can make prose more muscular or imagery more vivid) Metafora tasvirni yoki jumlani yanada aniqlashtirish uchun xizmat qiladi.**

“Sevinch, qo‘rquv, baxillik — hammasi **aralash-quralash** bo‘lib, Jonfig‘onning boshi **g‘ovlab ketibdi.**” Mavhum otalar: sevinch, qo‘rquv, bahillikni bir-biri bilan aralashib ketishi mumkin emas. Ammo metaforaning chalgt‘ishish turi orqali bunday metaforalar yaratilmoqda.

Ya'ni *chalg'itish* - ma'lum bir hodisa (shaxs yoki ob'ekt) belgisini mavhum, mavhum hodisaga o'tkazish.

“**Tuppa-tuzuk** o'tirgan odam birdan **aynib**, endi undoq bo'lasan” Bu gapdagi qora harflarda ajratilib ko'rsatilgan sifat yaxshi so'ziga nisbatan ishlatilgan. Aslida bu sifat insonning sog'lig'iga nisbatan qo'llaniladi. “Aynimoq” fe'li harakat o'xshashligi asosida metaforik ko'chim hosil qilmoqda. Aynimoq- yo'lidan qaymoq deganidir. Agar aynigan biror bir narsani ko'rsak uni istemol qilishdan qaytamiz, bosh tortamiz, bu yerda ham bir ish qilishdan bosh tortish ma'nosida ishlatilmoqda.

“Malohatning **ko'k piyoladan ko'ra kichikroq buqog'i** bo'lib, shuni o'tgan yil kuzda kestirgan ekan. Ikkinchi yirik janjal shunda bo'lib, yaqin bir haftaga cho'zilibdi.” Malohatning tana a'zosidagi nuqsonini piyolaga qiyoslamogda. **Yozuvchi metaforadan odamlarning turli kutilmagan holatlar bilan tasvirlash uchun ishlatgan. Undan tashqari metafora mavhum tushunchalarning o'quvchi uchun tushunarli yo'llar bilan yetkazib berish uchun xizmat qiladi.**

“Shuning uchun Malohat ko'zga ko'ringan sayin erini **el qatori ishlashga undar**, yalinar, ba'zan **qattiq gapirar, g'amga botib** hatto yig'lar ekan. Bu gap korxonaga **ovoza bo'lib**, Jonfig'onni o'sha zamoniyot ishdan haydashibdi. Mana, uchinchi **yirik janjal** mana shundan chiqibdi.” Yuqorida ajratib ko'rsatilgan metaforalarning asosiy vazifasi **o'quvchiga bir mavhum tushunchani aniq holda yetkazib berish yoki kam so'z orqali ko'p ma'no anglatuvchi jumlar yaratish kitobxonning asar mutoolasi jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning oldini olish, mavjud vaziyatni tasavvur qilish yoki holatlarni aniq kontekstda tushunishga yordam berish, tasvirni yoki jumlani yanada aniqlashtirish uchun xizmat qiladi.**

—Nega bundoq qilasiz, axir? — dedik. Jonfig'on yer chizib o'tirar ekan.

— **Shayton...**— dedi. Yozuvchi Jonfig'on uchun shayton metaforasi qo'llaydi. Sababi, uni qilgan hatti-harakati, umri davomida qilayotgan amallari shaytonning yo'liga yurish bilan tenglashtirilmoqda.

— Bekor aytibsiz! — dedi Malohat jahli chiqib,— chilimning suvini ichib **doktorga kirishni shayton sizdan o'rgangandir!..** Ushbu jumlada ham shayton va insonning bajargan ishlarini bir-biriga qiyoslayapti. **Ba'zan bu san'at turi orqali ikkita bir-birga o'xshamagan narsalar taqqoslanadi va miyyani charxlash uchun xizmat qiladi. Undan tashqari metafora tasvirni yoki jumlani yanada aniqlashtirish uchun xizmat qiladi.**

“U, **o'pkasini tutolmay yig'lab yubordi.**” O'pkasini tutolmasligi uni chiday olmaganini anglatmoqda. Yozuvchining maqsadi asar o'quvchisining ongida tasavvurni hosil qilish va uni ta'sirlantirishdir.

“U yig'lar ekan, yana xotiniga **so'z berdi**. Malohat uni hech qachon bu ahvolda ko'rmagan bo'lsa kerak, **yumshadi.**” So'zni berib bo'lmasligi yoki inson yumshamasligini bilamiz. Birinchi metaforada harakat o'xshashligi asosida, keyingisida jismning xususiyat o'xshashligi asosida ma'no ko'chishi kuzatilmoqda.

“Men sizga aytayin,— dedi,— pulingizning keragi yo'q, ishlasangiz bo'lgani! Biz **oxirgi sinoq** bo'lishi sharti bilan kafil bo'ldik, ammo har qaysimizning dilimizda: "Bu xotindan uyalib qolmasmikanmiz", degan bir andi-sha bor edi.”

“Shu gap gap bo‘ldimi, yo tag‘in **jinniligi tutarmikin?** — dedi.” Oxirgi sinoq deb so‘nggi bor berilayotga imkoniyat ekanligini ko‘rsatmoqda. Oxirgi metaforasi joylashinuv xususiyatiga ko‘ra ma‘no ko‘chgan. Jinniligi tutmoq birikmasida esa metafora ko‘chma ma‘no yasamoqda, uni eski odatini yana qilib qolmasmikan degan ma‘noni bermoqda, tutmoq fe‘li ham mavhum otlar bilan qo‘llanilmaydi balki aniq otlar bilan ishlatiladi. Ushbu jumlada (**Metaphors can make prose more muscular or imagery more vivid**) **Metafora tasvirni yoki jumlani yanada aniqlashtirish uchun xizmat qilgan. Undan tashqari (To entertain and tickle the brain, metaphor examples sometimes compare two extremely unlike things) Ba‘zan bu san‘at turi orqali ikkita bir-birga o‘xshamagan narsalar taqqoslandi. Bu turdagi metaforalarnin (implied) nazarda tutilgan metaphor turiga yaqqol misol qilib keltirish mumkin. Ko‘rinib turganidek, metafora hayotimizning har bir jabhasida o‘z aksini ko‘rsatadi. Yozuvchi Abdulla Qahhorning ham eng qisqa hikoyalardan biri hisoblanmish “Jonfig‘on” da deyarli har bir asar qahramoni o‘z nutqida metafora ko‘chim turida juda ko‘p foydalanganlarini guvohi bo‘lamiz.**

Xulosa:

Ko‘plab yozuvchilar ifodalamoqchi bo‘lgan fikrlariga rang berish ba‘zan bo‘rttirish uchun ishlatishadi. Sababi, asarlar o‘zining badiiy o‘xshatmalari bilan o‘quvchini o‘ziga tortadi. Ayniqsa, hayvonlar yoki jonsiz narsalarni jonlantirishda shu kabi badiiy vositalardan foydalanish talab etiladi. Boshqa badiiy tasviriy vositalar singari metafora ham juda kuchli qurol hisoblanadi.

Chunki, siz qo‘llagan metafora orqali o‘quvchi ongi va kuchli tasviringiz o‘rtasida ko‘prik yaratlasiz va bu bilan siz har bir fikringizni qiziqarli, hayotiy qilib, o‘quvchining qahramon va u yashayotgan dunyoni erkin tassavur qila olishiga zamin yarata olasiz.

Xususiyy-muallif metaforalar lingvistik metaforlardan farqli ravishda yozuvchining estetik maqsadi, ya‘ni borliqni subyektiv munosabatini qo‘shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo‘yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo‘lib, qahramonning his-tuyg‘ularini ta’sirchan, yorqin bo‘yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Axmedyanov K.A. Teoriya adabiyoti. – Ufa, 1985 yil. 126-bet
2. Deignan, A., Gabrys, D., & Solska, A. Teaching English metaphors using cross linguistic awareness-raising activities // ELT Journal. – 1997. - 51(4). – p. 353
3. Erkaboyeva.N., O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami.-T.;” LRSSON PRESS”, 2017,87-88 b.
4. Fayziyeva Aziza Anvarovna. Metafora Tarjimasiga Turli Qarashlar. Buxoro davlat universiteti. Ta’lim va inovatsion tadqiqotlar. (2022 йил 6.2)
5. Jose Ortega-y-Gasset. Las dos grandes metáforas. – En: Ortega-y-Gasset J. Pbras Completas. Tomo 2., Madrid, 1966. –P. 387-400.
6. Lakoff, G. Metaphors We Live by / G. Lakoff, M. John-son. —Chicago, 1980. — 116-bet
7. Mandelblit N. The cognitive view of metaphor and its implications for translation theory. Translation and Meaning, Part 3. – Maastricht: Universitaire Press, 1995. – p. 483-495.
8. Newmark P. A. Textbook of translation. – L.; N.Y.: Prentice Hall,1988. – p. 47
9. Newmark P. A. Textbook of translation. – L.; N.Y.: Prentice Hall,1988. – p. 81

10. Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6)
11. Sh.Xolmirzayev."Og`ir tosh ko`chsa", 134 b
12. Van Den Broeck, Raymond. The Limits of Translatability Exemplified by Metaphor Translation. Poetics Today, 2: 4, 1981. P. 73-87.
13. Vyvyan Evans and Melanie Green.'' Cognitive Linguistics An Introduction'' EDINBURGH UNIVERSITY PRESS